

## TOMIR

(*Bir parda, 7 ko 'rinishli pyesa*)

*Farg'ona vodiysi bo'ylab Sirdaryo, Norin kabi daryolar oqib o'tadi. Ular qirg'og'idagi daraxtlarning so'nggi paytlarda keskin kamayib ketayotgani kuzatilmoxda. Bu esa daryolar atrofidagi qishloqlar aholisi uchun katta xavf tug'diradi. Ushbu pyesaning yozilish sababi aynan mana shu voqealarga borib taqaladi.*

### ***Q A T N A S H U V C H I L A R:***

**MAHMUD** – 40-45 yoshda, o'rmon xo'jaligi boshlig'i

**AZIZ** – 20-22 yoshda, Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

**ADIBA** – 18 yoshda, qishloq qizi

**NASIBA** – 45-50 yoshda, Adibaning onasi

**RASHID MEBEL** – 40-42 yoshda mebel sexi direktori

**XOLMAT KAL** – 35-40 yoshda, telbanamo kishi

**RAHIMA ENA** – 70 yoshdagi kampir, AZIZning buvisi

**RUSTAM** – 40 yosh, poytaxtdan kelgan tadqiqotchi

**NOZIMA** – 35 yosh, poytaxtdan kelgan tadqiqotchi

**BEHRUZ** – 10-12 yosh, Rashid mebelchining nevarasi.

### **MAHMUDNING YORDAMCHILARI, BOLALAR, QO'SHNI AYOLLAR VA MILITSIYA XODIMLARI**

*Voqealar Rahima enanining uyi, O'rmon va Adibalarning uyida bo'lib o'tadi.*

### ***BIRINCHI PARDA* *BIRINCHI KO'RINISH***

*Sahnada yam-yashil o'rmon tasviri. O'rmon ortidan daryoning ovozi eshitilib turibdi. O'rtada daraxtlar qad ko'targan. To'rong'il daraxtlarining barglari kuchli shamoldan bir-biriga urilib shovullaydi. Shamol kuchayib yomg'ir aralash to'fonga aylanadi. Sahnada daraxtlarning qasur-qusurib boshlanib ketadi. Texnik vositalardan foydalanib to'fon turish holati ko'rsatiladi. (Masalan, sun'iy tutundan foydalanib).*

*Tomoshabin ko'z o'ngida daraxtlarning sinishi gavdalantiriladi. Asta-sekin to'fon tina boshlaydi.*

*Chiroq o'chib yonadi. Kechagi to'fon va yomg'irdan so'ng havo ochiq. Sahnada Mahmud hamda Aziz sinib yotgan daraxtlarni ko'zdan kechirishyapti.*

**MAHMUD.** (*Qo'llari havoda yoyiq. Simirib nafas oladi*) Havoni sofligini qarang, Azizbek ukam, havoni! Bunday bahavo joylarni yana qayerdan topasiz-a?! Hech qayerdan topolmaysiz. Men sizga aytsam, bu yerlarning tabiatini mana shunaqa jonga

orom bag‘ishlaydi. Oltin vodiy bu, oltin vodiy, ha, endi har zamon mana bunday hodisalar ham bo‘lib turadi-da. (*Qo‘llari bilan singan daraxtlarni ko‘rsatadi*). Biz esa siz bilan singan daraxtlar sonini oylik hisobotga kiritib qo‘yishimiz kerak.

**AZIZ.** Ha, albatta, Mahmud aka, mana daftar, ruchka, men tayyor.

**MAHMUD.** (*Azizning qo‘lidagi daftar bilan ruchkaga ishora qilib*) O‘hho‘, chaqqonsiz-ku, student.

**AZIZ.** (*kamtaronha samimiyyat bilan*) Ha, endi sizdan ko‘proq narsa o‘rganay deyapman-da.

**MAHMUD.** Ha, yaxshiii... Xo‘sh, degandan bilsak bo‘ladi-kii... (*atrofga ko‘z yugurtirib*) yozing de-ma-a-a-k, to‘rong‘il 15ta, qayrag‘och 10ta, daryo yoqasidagi tol va teraklardan o‘n-o‘n beshtasi, 2ta chinor.

**AZIZ.** (*hayratlanib*) Yo‘q, adashdingiz, Mahmud aka, to‘rong‘il 15ta emas 7ta qayrag‘och ham 5 dona. Keyin chinorlarning shoxi singan, xolos, tol va teraklar ham ko‘p emas.

**MAHMUD.** “Yoz”, degandan keyin yozib qo‘yavermaysizmi? Nima qilasiz ko‘p gapni?

**AZIZ.** Yo‘q-da. Tushunmayapman axir borini yozish kerakmi? Yo‘q bo‘lsa o‘zim sindirib yozib qo‘ymayman-ku?!

**MAHMUD.** Voy, mishqi-yey, ona suti og‘zidan ketmay turib gap qaytaradi-ya, bu ipirindi. Hoy student, menga qara, ko‘p gapirmasdan yoz deganini yozib qo‘yaver, ko‘p narsani bilsang, tez qarisan, tushundingmi?

**AZIZ.** Nega haqorat qilasiz, borini yozamanmi? Keyin yolg‘on hisobdan kimga nima foyda?

**MAHMUD.** Eyy so‘tak, aqling yetmagan narsaga aralashma, yaxshisi, praktika qog‘ozingni olib kel, o‘zim zo‘r qilib qo‘l qo‘yib beraman. Sen esa ukam shaharingga borib oliftaligingni qilaverasan. Ma‘qulmi? Bu yerlarda tentirab yurmasdan, a-a, bo‘ladimi, shunday qilsak? (Ayyorona tabassum bilan qulog‘i orqasiga qo‘lini tirab eshitaman ishorasini qiladi).

**AZIZ.** Yo‘q, men amaliyot o‘tash uchun, tajriba ochirish maqsadida kelganman bu yerga (qat’iy ohangda). Amaliyotimni shu o‘rmonda oxiriga yetkazaman.

*Shu payt Mahmudning telefonini jiringlaydi.*

**MAHMUD.** Alloo! Assalomu alaykum, rahmat, yaxshi. Ha, shu yerdaman o‘zimizning “Yashil dunyo” to‘qayida, xo‘p bo‘ladi, kutib turaman.

**MAHMUD.** Hov Rahima, enaning anqov buzog‘i! Nima deyatuvding? Amaliyot pamaliyotmi? Sen bilan ertaga gaplashamiz, yaxshisi, bugun borib dampingni olaqol.

**AZIZ.** Bu hisob-kitoblarchi.

**MAHMUD.** (o‘ziga o‘zi) Uff... Qanaqa Xudo urgan odamsan-a, aytdim-ku bugunga sizga ja-a-avob (tezroq ketkazib yuborish maqsadida, yalinchoq ohangda) Ey ukam, bu ish qochib ketarmidi, aytdim-ku bugun borib dampingizni olavering, enangizga qarashing. Qolgan ishlarni ertaga qilamiz, enaga Mahmud akam sizni so‘rab qo‘ydi deng, xo‘pmi? Endi boraqoling ukam.

*Noiloj qolgan Aziz o‘rmonni tark eta boshlaydi. Shu payt mashinaning to‘xtagan ovozi eshitiladi.*

**MAHMUD.** (*sahnada uyoqdan bu yoqqa yura boshlaydi, o'ziga o'zi*) Obbo bachchag‘arey, bu qizitaloqni bolasi yomon chiqib qoldi-yu, a, yaxshiyam jo‘natib yubordim.

**RASHID.** Ey Mahmudboy, hormasinlar endi, (hazil aralash) nechuk bu holingiz parishon?

**MAHMUD.** (Hovliqib) Kesinlar, kesinlar (hazilga javoban) sizning yo‘lingizga ko‘z tikib o‘yga tolibmiz-da, aka.

**RASHID.** Voy, buu siz bilan o‘tgan galgi hamkorligimiz yaxshi natija berdi, endi esa faqat mebel uchun emas, o‘g‘iltoya uy qurmoqchimiz. Uy bo‘lgandayam tumanda bitta bo‘lsin-da, og‘iltoyni to‘yida ham o‘zingiz xizmatdasiz. Ha endi shunga o‘zingiz chiroyli qilib-a?... (daraxtlarga ishora qiladi).

**MAHMUD.** A-a-a, (duduqlanib, ayyorona) bilasizmi? Rashid aka, shu kechagi to‘fonda singan daraxtlar bor lekin uy uchun yetarmikan?

**RASHID.** “Qalovini topsang, qor ham yonadi”, -deyishadi. O‘zingiz qalovini topasiz-da. Ko‘kida to‘layman, bundan keyin nima xizmat bo‘lsa biz tayyor.

**MAHMUD.** (narxini oshirish uchun kalovlanadi) Qandoq bo‘larkin...

**RASHID.** E, zo‘r bo‘ladi. Men sizga bir gap aytsam, biz yaqinda mebel ishlab chiqarish seximizga yangi buyurtmalar oldik, chet el bilan hamkorlikda ishlaymiz. Agar siz qo‘llab quvvatlab tursangiz ishlar besh, o‘zingizning ham ityalog‘ingiz oltindanda boy.

**MAHMUD.** (yana kalovlanadi) Axir, qanday qilib buning iloji yo‘q-ku?

**RASHID.** (bir chekkaga tortib kinoyali ohangda) Boy, ko‘pam o‘zingizni go‘llikka solmang, bor iloji, to‘fon-u yomg‘irlarni Xudodan ko‘proq so‘rayvering... Xo‘sh, kelishdikmi?!

**MAHMUD.** (qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib) Aka, sizga yo‘q deb bo‘larmidi, hurmatingiz bor.

*Sahna qorong‘ulashib, chiroq bir chekkada ularni poylab turgan AZIZni yoritadi. Aziz sahnaga chiqib keladi va Mahmudni so‘ka boshlaydi.*

**AZIZ.** (asabiylashib) Voy ablah-ey... Biz tabiat posbonlarimizmish yana, qilayotgan ishingiz g‘irt talonchilik-ku! Mana endi tushundim gap qayoqda ekan. Yo‘q, yo‘l qo‘ymayman!

**MAHMUD.** Iyaa, sen haliyam shu yerdamisan?

**AZIZ.** Ha, qayerda bo‘lay? Hammasini eshitdim...

*Aziz bilan Mahmud yoqalashib ketadi. Shu payt sahnaga eski uniqib ketgan kiyimda, boshiga esa eski do‘ppini qiyshaytirib kiyib olgan shirakayf Xolmat kal kirib keladi. Sahnaning chetrog‘ida Mahmud bilan Rashid o‘zaro gaplashib turishadi, Rashid Azizzning kimligini surishtiradi. Chiroq asosiy planda Aziz va Xolmat kalni ko‘rsatadi.*

**XOLMAT KAL.** Hayyu-hayt, lola yanoqlaaaar, lola yanoqlar,

Qaydan bilsin ot qadrin, ot minmagan erkaklar.

(har xil qo‘shiqlarni aralashtirib ovozini boricha qo‘shiq kuylaydi va biroz to‘xtab bir ko‘zi qisilgan holatda hammaga bir-bir nazar soladi) Nimalar bo‘lyapti o‘zi bu yerda, sen kimsan t-t-tanimayroooq turibman?

**AZIZ.** (astoydil jon kuydirib) Amaki manavi kap-katta odamlarni qilayotgan ishini qarang, axir bu turishda daraxtlarni kesaverishsa, o‘rmon yo‘q bo‘lib ketadi-ku?

**XOLMAT KAL.** Kim kesyapti daraxtlarni, a, kim? (jazavaga tusha boshlaydi)  
**MAHMUD.**(tinchlantirish uchun uni yoniga keladi) Qo‘yaver, Xolmatjon vaysayveradi-da, bu kecha shahardan kelgan bitta mishqi bo‘lsa, nimaniyam tushunardi?

**AZIZ.** Hadeb shaharlik ekanligimni peshlayvermang! (Kesatib) Ko‘rib turibmiz, qishloqni qanaqa sevishingizni, daraxtlarni kesib tugatayotganingizdan.

**XOLMAT KAL.** (birdan ko‘zлari g‘alati o‘ynoqlab) Nima? Daraxtlarni kesishadi? Axir, bu juda zo‘r-ku (Mahmudga qarab) Ha, ha, kes, bitta qo‘ymay kes, hammasini kesib tashla (jinnimonand kulib) zo‘r bo‘ladi, sen daraxtlarni kesaver, to‘qay tugab bitsin. Ana shunda-a daryoning suvi toshadi qishloqni suv bosadi hamma odamlar qirilib ketadi, hamma otlar ham. Ha, ha, ana o‘shalar o‘ldirgan meni otimni, o‘zлari ham o‘lsin, otlari ham o‘lsin (jinninamo yig‘lab, chiqib yugurib ketadi).

*Aziz hayron bo‘lib Xolmatning ortidan qarab qoladi.*

**MAHMUD.** E, ishni ham rasvosini chiqardi bu alkash.

**RASHID.** E’tibor bermang, Mahmudboy, gapiraveradi. (Rashidning telefoni jiringlaydi) Allo, xo‘p, hozir yetib boraman. Mayli siz bilan keyinroq xabarlashamiz.

**MAHMUD.**(kayfiyati tushkun holatda o‘ylanib qoladi) Ufff.

### **IKKINCHI KO‘RINISH**

*Oddiy qishloq hovlisi, odatdagidek so‘ri, sahna chetida tandir, o‘choq. Rahima ena qozon boshida kuymalanib yuribdi.(Sahna dekoratsiyasini tabiiy chiqishida rassom va rejissorning yordamiga suyanamiz). Hovliga Aziz tushkun kayfiyatda kirib keladi.*

**RAHIMA ENA.** Keldingmi, Aziz bolam, kelaqol (so‘ridagi joyni tog‘rilagan bo‘lib) o‘tir, ozroq damningni ol, rosa charchaganga o‘xshaysan.

**AZIZ.** Xo‘p, ena, rahmat, o‘zingiz yaxshi o‘tiribsizmi?

**RAHIMA ENA.** Ha, Allohga shukr. Nega bunchalik o‘ychan bo‘lib qolding, bolam?

**AZIZ.** Ena, o‘rmonda bir jinnisifat mast odamni ko‘rdim. Lekin aqlli gaplarni gapirdi, qandaydir g‘alatiroqmi-yey. Avval ham qayerdadir ko‘rgandayman...

**RAHIMA ENA.** Ha, Xolmattoni aytayotibsizmi? U jinni emas, judayam aqlli, jonkuyar odam ediya, esiz-a, shundoq yigit (*o‘ylanib qoladi*).

**AZIZ.** Ena, nimalarni o‘ylab qoldingiz u kishiga nima bo‘lgan o‘zi?

**RAHIMA ENA.**(chuqur xo‘rsinib) Eeey bolam, buni tarixi uzun. U paytlar Xolmatjon yoshgina, qishloqning eng oldi qirchillama yigit edi. Uloq chopishda unga teng keladigani topilmasdi. Nima bo‘ldi-yu, oti birdan o‘lib qoldi. Aytishlaricha, kimdir margumish berib qo‘ygan ekan. Ana shundan buyon Xolmatjon ichkilikka ruju qo‘ygan, dunyodan sovigan.

**AZIZ.**(ishonqiramay) Ena, axir bitta oti o‘lib qolsa odam telbanamo bo‘lib qolarkanmi, juda g‘alati-ku??

**RAHIMA ENA.** Azizjon, bolam-ay senga bu gaplar ertak bo‘lib tuyulishi mumkin, lekin odamlar bir narsani bilmasa, gapirmaydi. Eskilarni gapi bu: otni ko‘zida jini bo‘ladi. Otga mehr qo‘ygan odam undan kecholmaydi.

*Aziz o‘yga tolgancha qoladi.*

*Sahnaga qo'lida dasturxonga o'ralgan idish ko'targancha Adiba kirib keladi.*

**ADIBA**. Ena, ena-yuuu, Rahima ena!

*Sahna chetida kuymalanib yurgan Rahima ena ovoz beradi.*

**RAHIMA ENA**. Huumuvv kelaver qoqindiq, shu yerdaman.

**ADIBA**. (*bir qo'lini likkillatib qo'shiq hirgoyi qilib kelayotgan Adiba Azizni ko'rib uyalib ketadi va ichiga tuflab*) Voy ena, mehmonim bor, demaysizmi?

**AZIZ**. (*o'z hayolari bilan o'tirgan Aziz Adibani ko'rib dovdirab qoladi*) Keling, mehmon, keeling.

**ADIBA**. (*sharaqlab kulib yuboradi*) Voy, kim mehmon, sizmi mehmon, menmi mehmon?!

**AZIZ**. (*hijolat tortib*) Ha, endi...

**RAHIMA ENA**. Qo'ysang-chi, Adiba, bechora bolaginamni qizartirma.

**ADIBA**. Ha, ena, men nima dedim, axir?

**RAHIMA ENA**. Ha-da yoshliklaringdayam sira kun bermasding, shaharlik olifta deb, ust-boshiga loy chaplaganing chaplagan edi.

**ADIBA**. Nima?!

**AZIZ**. Bu hali o'zimizning puchuqvoymi?!

**ADIBA**. Munisa xolamning arzanda oliftasi Azizmisan?

*Ikkalasiyam hayratdan yoqa ushlashadi.*

**AZIZ**. Rostdan, Adibami, ena?

**ADIBA**. O'zingmisan, o'zgarib ketibsan-ku.

**RAHIMA ENA**. Sen dema qizim uyat bo'ladiya.

**ADIBA**. Enaaa (*norozilanadi*).

**AZIZ**. Qo'yavering, senlayversin, buni tili shunqa qattiq chiqqan o'zi. Kap-katta qiz bo'lib qoptilar-ku o'zlar ham-a.

**ADIBA**. (*kesatib*) Olifta yigit, biz tomonlarga qanday shamollar uchirdi, yo'qlab qolibsiz?

**AZIZ**. Haliyam o'sha-o'shasan, katta qiz bo'lganining bilan shartakililing qolmaptida.

**ADIBA**. Hmm, o'zliyam qolishmaydilar.

**RAHIMA ENA**. Hoyy ikkalang, bo'ldi qilasanlarmi, yo'qmi? Azizjon uyat bo'ladiya! Adibaga joy ko'rsatmaysanmi, senchi Adiba qo'lingdagini berish niyating yo'qmi?

**ADIBA**. Voyy esim qursin, ayam somsa yopgandilar, sizga olib chiqqandim.

**RAHIMA ENA**. (*Supadan joy ko'rsatib*) Qani o'tiringlar-chi.

*Rahima ena o'choq boshidan ovqat quyib keladi, Adiba unga yordamlashadi, hammalari birgalashib ovqatlanishadi. Shu payt sahnaga Xolmat kal cho'pdan qilingan otini qamchilab kirib keladi.*

**XOLMAT KAL**. (*qo'shiq hirgoya qiladi*) Lola yanoqlar, oq tulporim bor edi.

**RAHIMA ENA**. O'rgilay, Xolmatjon, kel bolam, yaxshi odamsan-da, ovqat ustiga kelding, kel tepaga chiq.

**XOLMAT KAL**. Ha, ha, men yaxshi odamman, ammo-lekin ana ular yomon odam, judayam yomon odam (*sahna chetiga ishora qiladi*).

**RAHIMA ENA**. Mayli, qo'yaver ularni, kel supaga chiq (*joy ko'rsatadi*).

**ADIBA**. Uff tog'a, yana ortimdan poylab yuribsizmi?

**RAHIMA ENA.** Nega unday deysan, odam bor joyga odam keladi-da, yaxshisi, ovqat suzib kelaqol, bolam.

*Adiba chaqqonlik bilan turib ovqat suzib kelishga ketadi, AZIZni tanib qolgan Xolmat kalning ko‘zlar quvonib ketadi.*

**XOLMAT KAL.** Ena, men anavini taniyman, yaxshi bola, mard bola.

**AZIZ.** (*shivirlab, imo bilan*) Sizga aytuvdim-ku?!

*Adiba ovqat suzib keladi, hammalari birga o‘tirib ovqatlanishadi.*

**ADIBA.** Aziz, eslaysanmi, Xolmat tog‘amni? Bolaligimizda Sulton laqabli otiga mindirib aylantirardilar, daryoga cho‘milgani borganimizni-chi, eslaysanmi?

**AZIZ.** (*biroz o‘yga cho‘mib*) Yo‘g‘-e... Xolmat tog‘a, bu odam ..... (*duduqlanib*) Ha, ha esladim o‘shanda otlarini ham rosa cho‘miltirgan edika. Nahotki, bu o‘zimizning Xolmat aka bo‘lsalar, umuman tanimabman, o‘lay agar. Ena, nahotki, odam o‘n-o‘n besh yilning ichida shu darajada o‘zgarib ketishi mumkin.

*Xolmat kal ishtaha bilan kosadagi ovqatni yeydi.*

**ADIBA.** Qachon kelding o‘zi, nimalar qilib yuribsan? Yangiliklardan shahardan gapir-chi. Shuncha payt nega yo‘q bo‘lib ketding?

**AZIZ.** Kelganimga hali ko‘p bo‘lmadi, universitetda o‘qiyapman. “Yashil vodiy” to‘qayida amaliyot o‘tashga keldim.

**ADIBA.** Yaqinda kelgan emish-ku, ammo qishloqda mendan boshqa hamma bilan ko‘rishib chiqibdi.

**AZIZ.** Kim bilan ko‘rishibman, hali hech kimni tanimayman-ku.

**ADIBA.** Qo‘ysang-chi, tog‘amni qayerda ko‘rding unda?

**AZIZ.** (*kulib*) Ha, “Yashil vodiy”ga borgandim amaliyot uchun, o‘sha yerda ko‘rdim ularni.

**RAHIMA ENA.** (*bosh chayqab*) Eh yoshlar, haliyam bolasizlar-da. Adiba qizim, AZIZ akang bu yerlarni yaxshi bilmaydi, onangdan ruxsat so‘rab chiqqin. Ertaga akingga qarashib yuborasan, xo‘pmi, bolam?

**ADIBA.** (*kulimsirab*) Xo‘p ena, endi biz ham ketaqolaylik kech bo‘lib qolmasidan. *Adiba xayrlashib chiqib ketadi. Xolmat kal ham cho‘p otini minib digidik-digidik –digidik chuu deya sahnani gir aylanib chiqib ketadi.*

### **UCHINCHI KO‘RINISH**

*To‘qay. Aziz va Adiba atrofni ko‘zdan kechirib yurishibdi.*

**AZIZ.** Bilasanmi Adiba, menda qonun yo‘li bilan muhofazaga olinishi kerak bo‘lgan daraxtlar va o‘simliklarning ro‘yxati bor. Ular mana shu qishloqda uchrashi mumkin. (*qo‘lidagi qog‘ozni Adibaga ko‘rsatadi*).

**ADIBA.** (*Azizni qo‘lidan qog‘ozni olib o‘qiydi*) Jung‘or toli, Turkman jing‘ili, jumurtnoma chakanda, jiyda, shifobaxsh kovrak (*ovozi sekin-asta pasayadi*) Xo‘sh, keyin-chi ?

**AZIZ.** Agar mana shu o‘simliklardan bir nechtasini shu to‘qaydan topa olsak, hukumat uni o‘z muhofazasiga oladi. Undan so‘ng esa o‘simliklarni ko‘paytirish taraddudini qilar edik, birqancha noyob o‘simliklarni yo‘qolib ketish xavfi ham bartaraf qilingan bo‘lardi.

**ADIBA.** Hmm, shunday degin. Bilmasam, bu yerda juda ko‘p notanish nomlar-ku, ko‘pini eshitmaganman ham, men bilganim yulg‘un. Biz uni jingul deymiz,

o‘zimizning qishloq tilida. Yo‘qolib ketmasaydi, oxirgi paytlarda juda kamayib ketdi o‘ziyam.

**AZIZ.** Ha, bu yerda asosan nomlar adabiy-ilmiy tilda yozilgan, nomlar mahalliy til bilan farq qilishi mumkin.

**ADIBA.** Xo‘p unda, yur men senga o‘rmonchamizni bir chekkadan ko‘rsataman. Faqat oyog‘ing ostiga ehtiyyot bo‘l ilon – pilon chiqib qolsa, juftakni rostlab qolmagan yana. (kulib)

**AZIZ.** Adiba, balki kesatiqlaringni bas qilarsan-a, axir kap-katta odamlarmiz-ku.

**ADIBA.** Hooo, kap-katta bo‘p qoldilarmi endi, xo‘sh bas qilmasam-chi, balki “siz” deb chaqirarman ham a?

**AZIZ.** Ha, “siz” desang, debsan-da, nima qilibdi, yigit kishiman yana ustiga sendan katta bo‘lsam (*Adibaning ko‘zlariga tikiladi*).

**ADIBA.** (*uyalinqirab, gapni boshqa joyga burib ketadi*) Aziz, yur senga buloqni ko‘rsataman, o‘ziyam ajoyib buloq-da. Suvi archa shoxlaridek yam-yashil, ammo biroz issiqroq, juda shifobaxsh deyishadi.

**AZIZ.** Rostdanmi avvalari yo‘q edi, shekilli.

**ADIBA.** Bor ekan, faqat u paytlar to‘qayda daraxtlar qalin bo‘lib, chakalakzorlar orasida u tomonlarga deyarli hech kim o‘tmagan, buloqning ko‘zi ham judayam kichik bo‘lgan. Endi ko‘z ochib, kattaribdi.

**AZIZ.** Ketdik unda o‘sha tomonga .

*Sahna aylanadi yoki chiroq o‘chib yonadi.*

*Yam-yashil chakalakzor. Sahna o‘rtasida qari bir daraxt.*

**ADIBA.** Charchab qolmadilarmi?

**AZIZ.** O‘zları charchab qolgan bo‘lsalar, mayli shu yerda biroz dam olaqolaylik.

**ADIBA.** (*kesatib*) Mayli-ku, lekin bu yerda skameykalar yo‘q-da, yerga o‘tirsak, kiyimlari kir bo‘lib qolmasmikin?

**AZIZ.** (*Aziz ham xuddi shu kesatiq ohangida*) Kir bo‘lsa bo‘libdi-da, yuvib berarsan?!

**ADIBA.** (*Azizdan bunday hozirjavoblikni kutmagani uchun jahli chiqadi*) E, ajab bo‘pti, o‘tiraqolaylik, charchadim.

**AZIZ.** (*miyig‘ida kulib*) Xo‘p (*daraxt ostida yerdagi maysalarni o‘ynab dam olishadi*). Adiba buloq suvi rostdanam shifobaxshmikin, rangi ham juda g‘alati ekan-da o‘ziyam?

**ADIBA.** Qishloqdagilar shunday deyishyapti-ku, o‘tgan yili G‘ani domlanikiga chet eldan bir odam kelgan edi. Domlaning o‘g‘li mol boqib yurib chanqaganda idishiga buloqdan suv olib ketgan ekan, o‘sha chet ellik suvni shifobaxshligini bilib qolibdi...

**AZIZ.** Xo‘sh, keyin-chi?

**ADIBA.** Tarkibini o‘rganish uchun shaharga olib ketmoqchi ekan, ketayotganida buloqdan suv olishga kelishsa anavi Mahmud ziqnaga uchrab qolishibdi. U bo‘lsa: “Suvni o‘rganish kerak bo‘lsa, o‘zimiz o‘rganamiz, hozir buyoqqa hech kimni kiritmayapmiz,- deb suv oldirishga qo‘ymabdi.

**AZIZ.** Qiziq, judayam qiziq, lekin men, albatta, bu suvni Poytaxtdagi ilmiy-tadqiqot institutiga olib boraman, balki uning xususiyatlari judayam ko‘pdır.

**ADIBA.** Yaxshi bo'lardi. Buvimning aytishicha, ularning yoshligida qo'shni qishloqda ham huddi shunaqa buloq bo'lgan ekan, turli xil yara-chaqa, teri va ichki kasalliklarga duchor bo'lgan odamlar o'sha buloq suvidan davo topisharkan.

**AZIZ.** Ha, shunday de. Demak bu suvning tarkibida shifobaxsh minerallar bo'lish ehtimoli katta. Bu ishga jiddiy kirishmasak bo'lmaydi.

*Sahnaga cho'p otini minib yor-yor aytgancha Xolmat kal Yugurib kirib keladi.*

**XOLMAT KAL.** Ana Adiba, mana Adiba, ana kelin Adiba, topdim, ha-ha, topdim uni.

**ADIBA.** Tog'a, nima deyapsiz, yana qanaqa kelin?

**XOLMAT KAL.** Sovchilar keldi, sovchilar, ketdik! Adiba, yur uyga, yur, yuraqol.

**AZIZ.** Xolmat aka?

*Xolmat ularga quloq solmay Adibani qo'yarda qo'ymay uyga ketishga undaydi.*

**XOLMAT KAL.** (Bir qo'lida cho'p ot, bir qo'lida xivchin) Ketdik, dedim senga, Adiba (Xivchin bilan Adibani turtadi).

**ADIBA.** Mayli, AZIZ, nima gap ekan, men uyga boray-chi. Bu ishlarni boshqa kuni davom ettiramiz.

**AZIZ.** Xo'p. (*O'ziga-o'zi*) Boshqa ilojim ham yo'q-da (*xomush tortib qoladi*).

### **TO'RTINCHI KO'RINISH**

*Chiroq o'chib yonadi. O'rtahol qishloq xonadoni. Adibalarning hovlisi.*

**NASIBA.** Kap-katta qiz qayerlarda yuribsan, Adiba?

**ADIBA.** Aytib ketdim-ku, aya, Rahima enaning nevarasi Aziz kelibdi. Universitetdan amaliyatga yuborishgan ekan, noyob o'simliklarni qidirishga yordamlashdim, qishloqni yaxshi bilmasa.

**NASIBA.** Xo'p, mayli, o'tgan ishga salovot. Endi dalama-dala, to'qayma-to'qay sandirag'lashni bas qil, buyoqda sovchilar kelib turgan bo'lsa, yarashmaydi, qizim.

**ADIBA.** Aya, qanaqa sovchi yana, aytdim-ku o'qishga kiraman deb.

**NASIBA.** Eyy, qanaqa o'qish, otang seni ikki dunyodayam uzoqqa yubormaydi. Uni ustiga Rashid mebelning o'g'liga manaman degan o'qigan qizlar ham jon deb rozi bo'ladi.

**ADIBA.** Rashid mebelning o'sha o'qimishli o'g'li menga umuman yoqmaydi.

**NASIBA.** Voy –voy –voy, unga nima qilibti, butun qishloqda uchtaning oldi-yu ikkitaning bittasi bo'lsa, judayam kelishgan yigit, senga ko'ngli tushibdi, qizim.

**ADIBA.** Aya, uning quruq savlati qursin. Dimog'idan eshak qurti yog'iladi, xuddi dunyoda undan boshqa odam o'qimagan-u, minib olgan mashinasini o'zi kashf qilgandek dimog'lanadi. E, kerilmay o'lsin.

**NASIBA.** Nima qipti kerilsa, bor ekanki, keriladi. Huquqshunoslik universitetini bitirib tuman prokuraturasida ishlash hammaga ham emas. Undan keyin otasining ham obro'si zo'r, istagan o'qishingga olib kirib qo'yadi, tushundingmi!

**ADIBA.** Uff.. o'zimni kuchim bilan kiraman o'qishga, otasinining qing'ir ishlari menga kerak emas. Uni ustiga o'sha bolani umuman jinim suymaydi. Ayaa...

**NASIBA.** Ayalama, bo'ldi, gap tamom. Dadang kelsin, maslahatlashib sovchilarning keyingi kelishida fotiha qilamiz.

### **BESHINCHI KO'RINISH**

*Sahnada katta Nok daraxti mevasi. 10-12 yosh atrofidagi qishloq bolalari (birining qo‘lida cho‘p, birining qo‘lida baklashkada suv – mol boqgani chiqishganligini ko‘rsatish uchun) nok atrofida o‘ynab yurishibdi. Ularning ichida bittasi bashang kiyinib olgan. Xolmat kal ham ular bilan birga yuradi.*

**BOBUR.** Kelinglar, yaxshisi, toshotar o‘ynaymiz.

**BEHRUZ.** Qanaqa toshotar, biznikiga borsanglar, komputerda zo‘r o‘yinlar o‘ynaymiz.

**NODIR.** Sen telfoningni qizg‘onib uyingga tashlab kelibsan-ku, kompyuteringni o‘ynatarmiding?

**BEHRUZ.** (Xo‘rozlanadi) Telefonimni zaryadi tugagan edi, buni ustiga bu yerda barbiram antena chiqmasa... shunga internet ishlamaydi, deb olib kelmadim.

**NODIR.** Voy, bahonasiyam tayyor, unda uyingda qanday ishlatasan?

**BEHRUZ.** Bobom uyimizga wifi o‘rnatib berganlar. Hamma sharoitimiz bor.

**NODIR.** Bilamiz. Rashid boyning nevarasi ekanligingni, unda bu yerda nima qilib yuribsan? Bor, ket, uyingga borib kompyuteringni o‘yna!

**BEHRUZ.** Seni nima ishing bor, istagan joyimda yuraman.

**BOBUR.** (Bolalarni chalg‘itmoqchi bo‘lib) Qo‘ysanglar-chi, kelinglar, yaxshisi, nok yeymiz.

**BEHRUZ.** Hali xom-ku?

**BOBUR.** Nima qipti, barbiram shirin-da.

**NODIR.** Shaxzodamiz xom nok yeb, ichketar bo‘lib qolmasin yana (*Nodir va Bobur kulib yuboradi*).

**BEHRUZ.** O‘chir ovozingni. Kim ichketar bo‘larkan??

**NODIR.** Ha, nima, rost-da. Yo‘g‘-e, sen, axir, daraxtga chiqishni ham eplolmasang kerak, a? Unda mevani qanday yeysan, yo o‘zim chiqib uzib beraymi?

**BEHRUZ.** Kim eplolmaydi?! Qani buyoqqa kelchi.

*Behruz bilan Nodir yoqalashib ketadi. Bobur ularni ajrata boshlaydi.*

**BOBUR.** Ey, bo‘ldi. Nodir o‘yin-o‘yin bilan bo‘lib mollar esimizdan chiqib ketibdiyu, yur ketdik. Agar fermerlarni yeriga o‘tlab ketgan bo‘lsa, o‘ldik deyaver.

*Bobur bilan Nodir shoshilgancha yugurib ketadi. Behruz esa nok daraxtiga alam bilan ko‘z tikkancha qarab qoladi. Chiroq Behruzni yoritib asosiy planda ko‘rsatadi. Xolmat kal kelib Behruzning jig‘iga tega boshlaydi.*

**XOLMAT KAL.** Chiqolmaysan kal-kal. Daraxtga chiqolmaysan va-va... (tilini chiqarib har xil harakatlar qila boshlaydi).

**BEHRUZ.** O‘zingsan kal.

**XOLMAT KAL.** Men chiqa olaman, sen esa chiqolmaysan.

**BEHRUZ.** Hozir ko‘rsatib qo‘yaman senga.

*Behruz Xolmatni quvlaydi. Ikkalasi quvlashib sahnadan chiqib ketadi.*

### **OLTINCHI KO‘RINISH**

*Sahnaga Adiba va uning orqasidan Aziz kirib keladi. Ular yurib gaplashib kelishadi.*

**AZIZ.** Nega boshqachasan, Adiba, yoki noo‘rin gap aytib qo‘ydimmi?

**ADIBA.** Yo‘q, nega endi, hammasi joyida.

**AZIZ.** Unda nima uchun qovog‘ing ko‘z ochirishga qo‘ymayapti?

**ADIBA.** O‘zim shunchaki.

**AZIZ.** Ha, mayli. Adiba, shu Mahmud aka qanaqa odam o‘zi, menga ba’zi bir ishlari sira yoqmayapti-da, qilayotgan ishlari juda shubhali.

**ADIBA.** O‘lguday ziqna odam, qishloq odamlari undan bezigan, hatto mol boqib yurgan bolalarni ham tinch qo‘ymaydi. (nok daraxti yoniga kelib) Mana bu o‘zimizning ming yillik nokimizga ham ega chiqib olgan o‘zicha, odam isi yoqmaydi, buloqqa-ku odamlarni yo‘latmay qo‘ygan.

**AZIZ.** (daraxtdan meva uzib olib, uni yaxshilab kuzatib, yengiga artadi) Voy-vo‘kattaligini hali pishishiga yana 1-2 oy bor bo‘lsa ham hozirdan shunaqa katta-ya. (Adibaga uzatadi).

**ADIBA.** (nokni olarkan) Ha, juda hosildor, har yili yaxshi meva qiladi. Kuzda kelsang, pishganidan yeb ketasan.

**AZIZ.** (nimadir yodiga tushganday) Adiba ro‘yxat sendamidi, noyob o‘simliklar ro‘yxati bor edi-ku??!

**ADIBA.** Ha, cho‘ntagimda edi, shekilli (xalatini cho‘ntagidan qog‘ozni olib beradi).

**AZIZ.** (shoshilgancha) Qani edi-ya, hooozir, mana, topdim, xuddi o‘sha (baland cho‘zib o‘qiydi) PYRUS ASIAE MEDIAE.

**Adibaa.** Nimalar deyapsan, Aziz, o‘lay, agar nimadir tushungan bo‘lsam.

**AZIZ.** (yosh boladay quvonib qo‘llarini yoyadi) Adiba, Adiba topdim, topdim.

**ADIBA.** Nimani topding? Amerika ochdingmi? Tovba, aystsang-chi, odamni qon qilmay.

**AZIZ.** Aka, desang aytaman, endi bunday buyog‘iga senlamayman desang aytaman.

**ADIBA.** (ensasini qotirib) Aziz , yosh bola bo‘lma aytaqol.

**AZIZ.** Xo‘p, xo‘p, mana bu daraxt (qog‘ozdagi yozuvni ko‘rsatib) O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan.

**ADIBA.** Xo‘o‘sh?

**AZIZ.** (nokga ishora qilib) Mana shu o‘zimizning nok-da! Olimlar uni O‘rta Osiyo nomi deyishadi, topdim, Adiba, topdim! Bilasanmi, bu voqeja O‘zbekiston olimlarini qanchalik quvontirishini?

**ADIBA.** Rostdanmi?

**AZIZ.** Rost bo‘lganda-chi, bilasanmi, bu yovvoyi nokning genlaridan foydalaniib serhosil, qurg‘oqchilikka va sovuqqa, zarakunandalarga chidamli navlarni yetishtirish mumkin. Bu esa yurtimiz bog‘dorchiligidagi ham katta yuksalish bo‘ladi, Adiba tushunyapsanmi?

**ADIBA.** Zo‘r-ku!

**AZIZ.** Men tez shaharga borib kelishim kerak, ilmiy-tadqiqot institutidan mutaxassislarni olib kelib buni rostdan ham noyob nav ekanligini isbotlab olishimiz kerak.

**ADIBA.** Faqat tez qaytasanmi? Yana shaharda qolib ketma.

**AZIZ.** Qaytganingdan keyin senlamayman, “aka” deyman desang, qaytaman (kuladi).

**ADIBA.** E, bor-e, yosh bola.

**O‘rmon. Mahmud 2-3 nafar ishchilar bilan sahnaning bir burchagidan chiqib keladi. Yonidagilarga nimalarnidir tushuntirgan bo‘ladi. Yovvoyi nok yoniga**

*kelib unga ham belgi qo‘yadilar. Yana bir necha daraxtni mo‘ljallab chiqib ketishadi.*

*Chiroq o‘chib yonadi.*

*O‘rmon. Sahna o‘rtasida Rashid bilan Mahmud ovozlarini baland qilib gapirishmoqda. Sahna chekkalarida Mahmudning yordamchilari daraxtlarni kesib, kesilganlarini yig‘ishtirib yurishibdi. Qo‘llarida bolta, arra kabi kesish asboblari.*

**RASHID.** Boy, ishlar qaley ketyapti, hammasi joyidami?

**MAHMUD.** Hammasi bir tekis aka.

**RASHID.** Duuruust (qo‘li bilan Mahmudni engashishga ishora qilib, pastroq tovushda) agar kimdir sizga xalaqit bersa yoki jig‘ingizga tegsa tortinmay aytavering, orqangizda mana biz turibmiz.

**MAHMUD.** Hech kim xalaqit bermayapti-ku-ya, shu anavi dala tomondagi yovvoyi nok pishar pishmay molboqar bolalar ko‘payib ketadi, ularni yonida biroz noqulayda.

**RASHID.** Unda qulay bo‘lishi uchun o‘sha nokni kesib tashlash kerak, tamom!

**MAHMUD.** Men ham shuni o‘ylab turgandim o‘zi.

**RASHID.** O‘ylamang, bajaring. O‘ychi o‘yini o‘ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi.

**MAHMUD.** Shundaylikka shundayku-ya, lekin...

**RASHID.** Hech qanaqa lekin-pekini yo‘q, chaynalmasangiz-chi.

**MAHMUD.** Bu nok siz-u biz tug‘ilganimizdan buyon bor bo‘lsa, uni shartta kesvorsak odamlarda shubha uyg‘onmasmikin, deyapman-da.

**RASHID.** Siz bilan men tug‘ilgandan beri qancha odamlar bandalikni bajo keltirdiyu, qancha daraxtlar qurib bitdi.

**MAHMUD.** Bundan chiqdi...

**RASHID.** Ha, huddi tushunganingizday...

**MAHMUD.** Nokni shoxlarini kesib, sekin asta quritamiz. Qurigan daraxt esa ....

**RASHID.** Istan sangiz shoxini, istasangiz tomirini kesing, xullas quritingda.

**MAHMUD.** Xo‘p-xo‘p.

*Chiroq o‘chib yonadi.*

*Nok daraxti oldiga Aziz va Adiba tadqiqotchilar bilan keladi.*

**AZIZ.** Nozima opa, qarang bu aynan PYRUS ASIAE MEDIAE - O‘rta Osiyo nomi to‘g‘rimi?

**NOZIMA.** Shunaqaga o‘xshaydi Azizjon (daraxtni kuzatib).

**RUSTAM.** (shox va barglarini uzib olib kuzatadi) Nozimaxon, bu aynan biz o‘ylagan mevaning xuddi o‘zginasi.

**ADIBA.** (begona odamlardan tortinib) Aziz.... Aziz aka, mehmonlarga buloq suvini ham ko‘rsatsak, yaxshi bo‘lardi.

**AZIZ.** (quvonchdan entikib) Ha, to‘g‘ri aytasan, Adiba.

**NOZIMA.** Buloq??

**AZIZ.** Nozima opa, Rustam aka sizlarga yo‘lda aytgandim-ku yashil rangli buloq suvi haqida.

**RUSTAM.** Ha-ha!

**NOZIMA.** Ha, esladim.

**ADIBA.** Uni bir ko'rsanglar edi, juda g'aroyib. Bu yerlardan ketgingiz kelmay qoladi.

**AZIZ.** Men shaharga borganimda buloq suvidan laboratoriyaga namuna ham topshirib keldim, javobini aytib qolishsa kerak.

**NOZIMA.** Ha, yaxshi qilibsiz.

**RUSTAM.** Yuringlar, unda buloqqa borib ko'ramiz.

**AZIZ.** Qani, ketdik unda.

*Hammalari buloq tomonga yurib ketishadi.*

*Sahnaga Mahmud va uning yordamchilari kirib keladi. Ular nok daraxtini kesmoqchi bo'lib pastroqdag'i shoxiga arra tekkiza boshlashadi. Adiba, Aziz, Nozima va Rustamlar orqalariga qaytib keladi. Aziz yugurib borib nokni mo'jalga olib turgan yordamchini qo'lidagi arraga yopishadi.*

**AZIZ.** Nima qilayapsan, ber buyoqqa.

**YORAMCHI.** (esankirab Mahmudga qaraydi) A-a?...

**MAHMUD.** Nega angrayasan, ol qo'lidan arrani (Yordamchiga qarab, Azizga ishora qiladi).

**YORDAMCHI.** A-a-a?

**ADIBA.** Mahmud aka, bu nima qilganinglar axir, nega nokni kesayapsiz? Uni sizga nima zarari tegayapti?

**MAHMUD.** (kalovlanib) Adiba, sen qizishma singlim, bu daraxt judayam qari uni ustiga yovvoyi, bu singari daraxtlar uzoq yil yashagandan so'ng atrofga o'zidan zararli moddalar chiqara boshlaydi (*yordamchisiga qarab telefon qil degan ishorani qiladi*).

**ADIBA.** (*MAHMUDning so'zlariga ikkilanib Nozima bilan Rustamga qaraydi*) Opa uni gaplari to'g'rimi?

**RUSTAM.** Aka, bu gaplarni sizga kim aytди?

**MAHMUD.** Mutaxassislar bilan maslahatlashdik.

**NOZIMA.** Qanaqa mutaxasis ekan ular?

**MAHMUD.** (Azizga) Menga qara kim o'zi bular, nega endi o'z yerimda allaqanday begonalar meni tergov qilishlari kerak?

**ADIBA.** Men aytaman ularning kimligini, ular tabiat xaloskorlari.

**AZIZ.** Siz aytgan mutaxassislar kimligini bilmadik-u, lekin bu odamlar poytaxtdan kelgan olimlar.

**ADIBA.** Ha, ha O'simliklar bo'yicha katta olimlar.

**AZIZ.** Qaysi daraxtning xususiyati qanaqaligini ular yaxshi bilishadi. Zararlimi, foydalimi? O'rganib chiqish uchun kelishdi.

**MAHMUD.** N-nima, kim olib keldi ularni? Nega kelishadi? (dovdirab).

**ADIBA.** Kim olib kelganini nima ahamiyati bor. Muhimi, ular shu yerda. Bundan buyon birorta daraxt sababsiz kesilmaydi.

**MAHMUD.** Hoy qiz, o'zingcha nimalar deyapsan?

**ADIBA.** Haqiqatni aytyapman.

**AZIZ.** Shu qilmishlaringiz uchun tegishli joylarga murojaat qilsak, bilasizmi nima bo‘lishini?

*Sahnaga Xolmat kal kirib keladi.*

**XOLMAT KAL.** (Azizga qarab) Mana shu. Ha, ha, mana shu judda yomon odam, otimni ham shu o‘ldirgan.

**MAHMUD.** Ho‘o‘ov kal, nimalar deb valdirayverasan.

**ADIBA.** Tog‘amni haqorat qilmang.

**MAHMUD.** Sen ham ko‘p vaqillama, boshqasiga fotiha bo‘lgan qiz to‘qayda begona erkaklar bilan sayr qilib yurganingni quda tomon biladimi?

**AZIZ.** ( hayratlanib) Adiba? ? ?

**ADIBA.** (yuzlarini berkitib yig‘lay boshlaydi) Anuv kuni, anuv kuni (piqqillaydi).

**AZIZ.** Nega yig‘layapsan, qanaqa fotiha, kimga fotiha?

**ADIBA.** Ayam, Rashid mebel (piqqilab gapirolmay qoladi)

*Xolmat kal cho‘p otini minib xivchini bilan Mahmudni va yordamchilarini urib qochadi, ular so‘kinib Xolmatni quvlashadi. Mashina to‘xtaganini ovozi eshitiladi. Sahnaga Rashid kirib keladi. Rashidni ko‘rgan Xolmat odamlar orqasiga yashirinadi.*

**RASHID.** Voy-vo‘, jamoa jam faqat biz kam ekanku-a, Mahmudboy nimalar bo‘layapti bu yerda?

**MAHMUD.** Aka?

**AZIZ.** Men aytaman nimalar bo‘layotganini.

**RASHID.** (Ensasi qotib) Sen?

**AZIZ.** Agar bilsangiz sizlar kesmoqchi bo‘lgan yo‘q, allaqachon bir qanchasidan mebel yasab tashlagan daraxtlar aslida davlat muhofazasidagi noyob o‘simliklar qatoriga kiradi.

**RASHID.** (Beparvo iljayib) Xo‘-o‘-sh-sh...

**AZIZ.** Shunday ekan endi qilgan ishlaringiz uchun hammangiz qonun oldida javob berasiz.

**RASHID.** (xandon otib chin dildan kuladi) Sen kimsan, mishqi, qanaqa qonun, qanaqa daraxt? Kim ko‘ribdi bizni daraxt kesganimizni, tuhmat qilma bola.

**AZIZ .** Shuncha paydan beri odamlarni ko‘zini shamg‘alat qilib, butun to‘qayni yeb bitirgansizlar. Lekin meni aldayolmaysiz. MAHMUD aka bilan orangizdagি hamma gapdan xabarim bor, bugunoq tegishli joylarga murojaat qilaman.

**RASHID.** (yana kuladi) Tegishli joylargaaa? Qayer ekan o‘sha joylar, biz ham bir bilaylikchi, balki u yerda ham tanishlarmiz bordir-a?

**MAHMUD.** (ancha jonlanib) Ho‘o‘v aqli, sen kimsan, senga nima? O‘zingcha qahramonliklar qilmoqchi bo‘lasanmiy-ey, o‘zi bir shaharlik bo‘lsang, kim qo‘yipti, senga qishloq ishlariga aralashishni?

*Shu payt Rustam va Nozima bir narsalarni maslahatlashib, kimgadir qo‘ng‘iroq qilishadi.*

**AZIZ.** Menmi, men ham mana shu yer, shu qishloq shu o‘rmonning bir bo‘lagiman. To‘g‘ri, shaharda o‘sib katta bo‘lgandirman, ammo mening tomirim, o‘q ildizim shu yerda. Ha, ha, shu yerda quloch yoygan.

**RASHID.** Voy-vo‘ gapisishi olamni oladi-yu a bu bolani, MAHMUD? Anavilar kim bo‘ldi endi, nima qilib qoqqan qoziqday turishibdi bu yerda?

**MAHMUD.** Ularni, a?....

**ADIBA.** ( Rustam va Nozimaning oldiga o‘tib) Ularni biz chaqirdik poytaxtdan kelishdi, o‘rmon xo‘jaligimizda ilmiy-tadqiqot o‘tkazishmoqchi.

**RASHID.** Sen qiz, menga qara-chi, Nasibaning qizimisan?

**MAHMUD.** Sizlar og‘iz solib yurgan qiz shu-da, Rashid aka. Ko‘rib qo‘ying ahvolini.

**RASHID.** Ha, Adiba, sen eding-a.

**MAHMUD.** Ha, huddi o‘zi. Kuppa kunduzi shaharlik erkaklar bilan para-para bo‘volib sayr qilib yuripti.

**ADIBA.** Og‘zingizga erk beravermang.

**MAHMUD.** Ha, nima, rost-da. Aka, shundoq o‘g‘lingizga qanaqa sharmanda qizni kelin qilmoqchi bo‘lib yuribsiz-a.

**RASHID.** Voy iflos, zoti pas, o‘g‘limni boshini aylantirib yana bu yoqda shaharliklarni ham bo‘sh qoldirmabsan-da.

**AZIZ.** O‘chiring ovozingizni, Adibani haqorat qilishga hech biringizning haqqining yo‘q (Rashid bilan Mahmudga o‘dag‘aylaydi).

**MAHMUD.** Nima qilasan ovozimizni o‘chirmsak a ?( Azizning yoqasidan oladi).

**AZIZ va MAHMUD yoqalashib ketishadi. Adiba ularni ajratishga urinadi. Bu paytda Rashid telefonda gaplashayotgan bo‘ladi.**

**ADIBA.** AZIZ aka! Qo‘yvoring uni (Mahmudning qo‘liga yopishadi).

Mahmud siltalaganda uning qo‘lidagi arrami boltami Adibaga tegib ketib Adiba yerga yuztuban yiqilib qoladi.

*Shu payt sahnadagi janjallahuv fonida Behruz kelib nok daraxtiga osila boshlaydi. Chala arralangan daraxt shoxi bolani ko‘tarolmay sinib ketadi. Behruzning chinqirig‘i eshitiladi. Hamma u tomonga qarab qoladi.*

**BEHRUZ.** (ingrab) Voy ayajon, oyog‘im (baqirib yig‘laydi).

**Hamma u tomonga yugurib boradi.**

**RASHID.** Behruz, og‘lim, Behruz. Sen bu yerda nima qilayapsan?

**MAHMUD.** Rashid aka, bu sizning nevarangizmi?

Adibani o‘rnidan turg‘azib, hammasi joyida ekanligiga ishonch hosil qilgan AZIZ Behruzning yoniga keladi.

**AZIZ.** Hozir savol-javobning o‘rnimi? Bolani qutqarsanglar-chi undan ko‘ra.

**AZIZ Behruzning ustiga tushgan shoxlarni olib tashlaydi. MAHMUD va uning yordamchilari ham unga qarashadi. Rashid boshini changallaganicha bir muddat esankirab qoladi.**

**AZIZ.** Adiba, Adiba, kel buyoqqa (cho‘ntagidan telefonini olib Adibaga uzatadi) man buni ol, “Tez yordam”ga qo‘ng‘iroq qil, ikkala oyoq ham singanga o‘xshaydi. Shoshilishimiz kerak.

**ADIBA.** Xo‘p. Lekin tuman markazidan tez yordam yetib kelguncha vaqt o‘tishi mumkin. Boshqa mashina topishimiz kerak.

**AZIZ.** Ha-ya, to‘g‘ri aytasan. Nozima opa va Rustam akalarni chaqir, ularni mashinasida olib borsak bo‘ladi.

**ADIBA.** To‘g‘ri aytasiz. Xo‘p.

*Adiba Nozimalarga telefon qiladi. AZIZ Adibaning sharfini olib, tekis shoxlardan kaltak sindirib Behruzni oyog‘iga boylashga urinadi.*

**RASHID.** Ho‘v, nima qilyapsan, qoch bolamdan qo‘lingni tort.

**AZIZ.** Qanaqa odamsiz. Ahvolini qarang bolani. Hozir tezda shina qo‘yib birinchi yordamni ko‘rsatmasak, balnitsaga borguncha battar bo‘ladi.

*Mashinaning to‘xtagan ovozi beriladi.*

**RASHID.** Mahmud, hammasiga sen aybdorsan, ablah.

**MAHMUD.** Nega endi? Axir men siz nima degan bo‘lsangiz, shuni qildimku!

*Sahnaga Nozima bilan Rustam kirib keladi. Adiba ularning oldiga yugurib boradi.*

**ADIBA.** (Entikib) Kelyapsilarmi?

**RUSTAM.** Nima bo‘ldi, tinchlikmi?

**NOZIMA.** Nima gap adiba, telefonda yaxshi tushunmadim gaplaringizga.

**ADIBA.** Keyin, keyin tushintiraman hammasini. Hozir tezda bolani doktorga olib borish kerak.

**RUSTAM.** AZIZjon, siz oyog‘idan ushlang, men qo‘lidan ko‘taraman, mashinaga olib chiqaylik.

**AZIZ.** Xo‘p.

**ADIBA.** Men ham sizlar bilan boraman.

**RUSTAM.** Yaxshisi, sizlar Nozima bilan shu yerda qolganlaring ma’qul. Uni ustiga mashinaga ko‘pchilik sig‘maymiz.

*AZIZ va Rustam bolani olib chiqib ketishadi, MAHMUDning yordamchilari ham ular bilan birga ketadi. Musiqa fonida Adiba va Nozima shoxlari singan nok atrofida nokka ishora qilib, o‘zaro suhbatlashib turishadi. Rashid MAHMUD bilan tortishib turgan joyida sahnaga miliitsiya xodimlari kirib keladi.*

**MILITSIYA XODIMI:** Rashid Musayev kim?

**RASHID.** (Esankirab Mahmudga qaytdi) Bular qayerdan paydo bo‘ldi?

**MILITSIYA XODIMI:** (Mahmudga qarab) Rashid Musayev sizmi?

**MAHMUD.** (Dovdirab) Yo‘q-yo‘q, men emas.

**RASHID.** (Bepisand) Menman, xo‘sh, nima ishingiz bor?

**MILITSIYA HODIMI.** Biz bilan borishingizga to‘g‘ri keladi.

**RASHID.** Nima uchun?

**MILITSIYA XODIMI.** Ustingizdan ariza tushgan, borganda hammasini bat afsil tushunib olasiz.

**MAHMUD.** Unda men boraqola-ya.

**MILITSIYA XODIMI.** Hoynahoy, siz Mahmud Qurbonovsiz, siz ham biz bilan ketishingizga tog‘ri keladi.

*Miliitsiya hodimlari Rashid va Mahmudni olib chiqib ketishadi. Chiroq nok oldidagi Adiba va Nozimani yoritadi.*

**NOZIMA.** Yaxshiyam vaqtida kelib qolib sizlar, bo‘lmasa ushbu noyob nokdan ayrilib qolgan bo‘lardik.

**ADIBA.** Ha, to‘g‘ri, nok omon qoldiku-ya, lekin bolaga javr bo‘ldi-da, bechoragina.

**NOZIMA.** Ha, yaxshi ish bo‘lmapti.

**ADIBA.** Behruz jiyanim bilan bir sinfda o‘qiydi, “juda yaxshi bola”, deb maqtaydi doim. Lekin bobosining qilgan aybi uchun u xun to‘layotganga o‘xshaydi.

**NOZIMA.** (Adibaning gaplariga tushunolmay) Nega?

**ADIBA.** Behruz, Rashid mebelning nevarasi. Biz Aziz aka bilan bu yerga kelganimizda Mahmud o‘rmon uning topshirig‘i bilan nokni kestirayotgan ekan. Biz ular bilan to‘xtatmoqchi bo‘lib, turganimizda Behruz nokka chiqaman deb osilib, yiqilib tushdi.

**NOZIMA.** Tavba! O‘z tomiriga o‘zi bolta urish deb shuni aytsalar kerak-da.

**ADIBA.** Ha, lekin yomonga jin urmaydi, begunoh bolaga urdi uning qilmishlari. Aytgancha, militsiya hodimlariga kim xabar berdi ekan?

**NOZIMA.** Biz xabar berdik. Rustam aka, vaziyat jiddiyligini tushunib tegishli joylarga qo‘ng‘iroq qiligidilar. Mana, endi jinoyatchilar qilmishlariga yarasha jazo oladi.

**ADIBA.** Ha, har kim nima qilsa, o‘ziga qilar ekan-da.

**NOZIMA.** Ha aytgancha, Labaratoriya yuborilgan buloq suvi haqida ijobiy natija aytishdi. Olimlarimiz uning xususiyatlariga qiziqib qolishganga o‘xshashadi.

**ADIBA.** Rostdanmi?!

**NOZIMA.** Ha, albatta. Bilasizmi? Bu nima degani, bu sizlar shifobaxsh buloq suvini, yovvoyi nokni kashf qildingiz. Endi qishloqning turizmi, o‘rmonshunosligi ham rivojlanadi, qishloq aholisining yashash turmushi ham yaxshilanadi.

**ADIBA.** Ha, ha eng asosiysi tobora yo‘qolib ketayotgan o‘rmonimizni, tabiatimizni asrab qolamiz.

**NOZIMA.** Huddi shunday, Azizjon bilan sizning harakatlaringiz natijasi bu.

**ADIBA.** Aslida, sizlarsiz qo‘limizdan hech narsa kelmagan bo‘lar edi. Yaxshiyam sizlardek jonkuyar olimlar, ilm-fan fidoiylari bor ekan.

**NOZIMA.** Ey Adiba singlim, yurtimiz bo‘ylab mana shunday ekologik muammolar, hali kashf qilinmagan tabiat boyliklari ozmuncha bormi?

**ADIBA.** Sizlar bor ekansiz, ularni ham bartaraf bo‘lishiga ishonaman.

**NOZIMA.** Ha, nasib. Qo‘shni mamlakatlar bilan chegaradosh hududlarda ham o‘rganilmagan shifobaxsh giyohlar hali talaygina men sizga aytsam. Yurtimizning boy tabiatini to‘la sir.

**ADIBA.** Men ham o‘qishga kirib, sizlarga o‘xshagan olim bo‘laman. Keyin birgalashib sirlarni ochaveramiz, opa.

**NOZIMA.** Kelishdik.

### ***YETTINCHI KO‘RINISH***

*Rahima enaning hovlisi. Hovli to‘la odam. Kimdir o‘choq osib ovqat pishiryapti, yana kimdir choy qaynatyapti. Hamma to‘y taraddudida. Xolmat yugurib sahnani gir aylanadi.*

**XOLMAT KAL.** Urre, Sulton o‘lماqan ekan, u tirik! Eshityapsizlarmi u tirik! Otim toychoq bo‘lib qaytdi.

*Dasturxon tuzash uchun patnis ko‘tarib yurgan qo‘shni ayollar o‘zaro suhbatlashishadi.*

**BIRINCHI AYOL.** Shu Azizbek ajoyib yigit ekan-da. U tufayli qishlog‘imizdan odamlarning oyog‘i uzilmay qoldi.

**IKKINCHI AYOL.** Ha, nimasini aytasiz, Xolmatjongayam ot sovg‘a qilib, savobga qoldi.

**BIRINCHI AYOL.** Ha, eshitdim, otga ovunib ichishni tashlagan emish.

**IKKINCHI AYOL.** Adiba ham alomat qiz-da. Baxtli bo‘lishsin, iloyim.

**BIRINCHI AYOL.** Qo‘sha-qarib uvali-juvali bo‘lishsin. Siz bilan biz beshik to‘ylarda xizmatda bo‘laylik. O‘rgilay.

**IKKINCHI AYOL.** Qishlog‘imiz ham gullab yashnayversin!

*Shu payt yangalar, qizlar va kuyovjo ‘ralar qurshovida sahnaga kelin-kuyov, ya ’ni Aziz va Adiba yor-yor bilan kirib keladi. Kuy-qo ‘shiqlar yangrab hamma xursandchilik qiladi.*

## TAMOM